
On the Categories of Institutional Discourse in Linguistics

Khazifakhan Islamjanova¹

xislamjanova1949@gmail.com

Doctor of Philological Sciences, Professor,
Department of Languages-2,
Oriental University

Tamilla Dilshod qizi Annazarova²

abdutami18@gmail.com

Lecturer, Department of Languages-2,
Oriental University, Independent Researcher,
Higher School of Turkology,
Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation *This article provides a systematic analysis of the concept of institutional discourse in modern linguistics, describing its theoretical foundations, essential features, and the categories that determine its structure and functioning. The study reviews leading scholarly views, conceptual approaches, and methodological principles, and summarizes previous research through comparative, descriptive, and analytical methods. Particular attention is paid to the influence of social status, institutional roles, and communicative intentions of participants, which shape discourse strategies, tactics, and patterns of interaction. The paper emphasizes the significance of extra-linguistic factors, including social, cultural, psychological, and pragmatic aspects, in the production and interpretation of institutional communication. It demonstrates how linguistic units operate together with contextual conditions to form stable genres and recurring communicative models. The results clarify the structural and functional characteristics of institutional discourse, develop a typology of its genres and types, and provide theoretical generalizations and practical recommendations. The research offers an interdisciplinary framework that can serve as a reliable basis for further linguistic and discourse studies.*

Keywords *Discourse, institutional discourse, pragmatics, communicative situation, social role, speech activity*

Tilshunoslikda institutsional diskurs kategoriyalari masalasi xususida

Islamdjanova Xazifaxan

xislamjanova1949@gmail.com

Tillar-2 kafedراسi filologiya fanlari doktori, professor
Oriental universiteti

Annazarova Tamilla Dilshod qizi

abdutami18@gmail.com

Tillar-2 kafedراسi o'qituvchisi,
Oriental universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

¹ Islamjanova Kh. — ORCID: 0009-0008-9873-3611

² Annazarova T.D. — ORCID: 0009-0005-1517-5027

Annotatsiya *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda institutsional diskurs tushunchasi, uning nazariy asoslari, mazmun-mohiyati va funksional xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur hodisaning shakllanishi, rivojlanishi hamda jamiyatdagi kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Olimlarning ilmiy qarashlari, konseptual yondashuvlari, metodologik tamoyillari va mavjud tadqiqotlar holati qiyosiy hamda tavsifiy metodlar orqali yoritiladi. Nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, roli, niyati, maqsadi, strategiya va taktikalar diskursning tuzilishi hamda ishlash mexanizmini belgilashi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, lingvistik birliklar bilan birga ekstralingvistik omillar, ya'ni ijtimoiy, madaniy, psixologik va pragmatik shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Olingan natijalar diskursning tarkibiy-funksional belgilarini aniqlashga, janr va turlarini tasniflashga, ularni kompleks hamda interdisiplinar yondashuv asosida tavsiflashga xizmat qiladi. Mazkur ish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy-metodologik poydevor yaratib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Natijalar ilmiy hamjamiyat uchun dolzarb nazariy xulosalar berib, tilshunoslikda diskurs tadqiqotlarini chuqurlashtirishga va amaliy tajribani boyitishga samarali yordam beradi.*

Kalit so'zlar *Diskurs, institutsional diskurs, pragmatika, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy rol, nutq faoliyati*

К вопросу о категориях институционального дискурса в языкознании

Исламджанова Хазифахан

xislamjanova1949@gmail.com

Доктор филологических наук, профессор,

Кафедры языков-2,

Университета Oriental

Анназарова Тамилла Дилшод кизи

abdutami18@gmail.com

Преподаватель Кафедры языков-2,

Университет Oriental,

Свободный соискатель Высшей школы

Тюркологии,

Ташкентский государственный университети

востоковедения

Аннотация *В статье представлен комплексный системный анализ понятия институционального дискурса в современной лингвистике его теоретических оснований содержания и сущности основных аспектов. Рассматриваются научные взгляды отечественных и зарубежных исследователей концептуальные подходы методологические принципы и актуальное состояние исследований в данной области сегодня подробно. Работа основывается на сравнительном описательном и аналитическом методах что обеспечивает объективность выводов и надежность интерпретаций полученных результатов исследования в целом. Доказано,*

что формирование и функционирование дискурса связано с социальным статусом ролями участников и их коммуникативными намерениями целями стратегиями тактиками взаимодействия. Особое внимание уделяется роли экстралингвистических факторов социальных культурных психологических и прагматических условий, влияющих на производство смысла в институтах коммуникации повседневной. Показано, что языковые единицы функционируют во взаимодействии с контекстом формируя устойчивые жанры модели и форматы общения внутри различных институциональных пространств. Полученные результаты уточняют структурно функциональные характеристики дискурса предлагают типологию его жанров и описывают коммуникативные стратегии тактики средства реализации целей участников. Исследование формирует междисциплинарную теоретико методологическую базу и создает практические рекомендации для дальнейших прикладных и академических исследований в будущем развитии науки.

Ключевые слова *Дискурс, институциональный дискурс, прагматика, коммуникативная ситуация, социальная роль, речевая деятельность*

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til hodisasini faqat struktur-semantik tizim sifatida emas, balki real kommunikativ faoliyat doirasida o'rganishga qaratilgan yondashuvlar shakllandi. Ushbu jarayon natijasida diskurs tushunchasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi.

Ma'lumki diskurs – (fransuzcha discours – “nutq”) – ekstralingvistik omillar, ya'ni pragmatik, ijtimoiymadaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birgalikda olingan yaxlit matn; hodisaviy (voqeaviy) jihatdan ko'rib chiqiladigan matn; maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat sifatida talqin etiladigan nutq bo'lib, u insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida hamda ularning ong mexanizmlarida (kognitiv jarayonlarda) ishtirok etuvchi tarkibiy qismidir. Boshqacha qilib aytganda diskurs – bu “hayotga singdirilgan” nutqdir. Shu sababli “diskurs” atamasi “matn” atamasidan farqli ravishda, qadimgi va boshqa shunday matnlarga nisbatan qo'llanilmaydi, chunki ularning jonli hayot bilan bo'lgan

bevosita aloqasini to'g'ridan-to'g'ri tiklab bo'lmaydi (Ярцева, 1990).

Diskursning o'rganilish tarixini ikki davrga ajratish mumkin. XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida tadqiqotchilar tomonidan diskurs nutqiy faoliyat, pragmatik vaziyat va kommunikativ maqsadlar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilingan. Diskursning pragmatik tabiati o'rganilib, til faqat tizim emas, balki subyekt tomonidan muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan faoliyat sifatida ham qaralgan.

Diskursni o'rganishning ikkinchi davrida nutq va diskursning o'zaro mutanosibligi, uning turlari, klassifikatsiyasi, hususiyati tadqiq qilingan. Matnning diskursiv tahlil jarayonini ishlab chiqilishi ham mazkur davrning ko'zga tashlangan natijalaridandir. Shu bilan birga diskursni modellashtirish masalasi ham bu davrda amalga oshirildi.

Diskurs tahlilining ilk ilmiy asoslari Zellig Harris nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1952-yilda e'lon qilingan “Discourse analysis” maqolasida diskursni gapdan yuqori birlik sifatida tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi (Harris, 1952). Harris

uchun diskurs, avvalo, lingvistik birliklarning ketma-ketligi bo'lsa-da, uning ishlari keyingi tadqiqotlar uchun metodologik zamin yaratdi. Uning "Discourse analysis" nomli ishi mazkur masala tadqiqining fundamental asosi deb aytish mumkin.

Diskursni turli nuqtai nazarlardan tadqiq etilgan tushuncha deb aytsak, uning funksional va kommunikativ hususiyatini o'rganishda E.Benvenistning ishlari ahamiyat kasb etadi. U "Umumiy lingvistika" asarida nutqni shaxs, zamon va makon bilan bog'liq jarayon sifatida izohlaydi. Benvenistga ko'ra, til faqat tizim emas, balki subyekt tomonidan muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan faoliyatdir, bu esa diskursning pragmatik tabiatini asoslaydi.

Diskurs tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida N.D. Arutyunovanning ilmiy merosi alohida o'rin egallaydi. U diskursni faqat struktur yoki matn doirasida emas, balki nutqiy faoliyat, pragmatik vaziyat va kommunikativ maqsadlar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilgan olimlardan biridir (Арутюнова, 1990).

N.D. Arutyunova diskurs tushunchasini tilshunoslikka funksional-pragmatik paradigma doirasida olib kirib, uni real nutq amaliyotini tahlil qilishning asosiy kategoriyasiga aylantirdi.

N.D. Arutyunovanning eng ko'p iqtibos qilinadigan ta'rifiga ko'ra: *"Diskurs – bu 'hayotga singdirilgan nutq' (речь, погружённая в жизнь)"*. Ushbu ta'rif diskursning asosiy xususiyatini – uning kontekstga bog'liqligi va ijtimoiy-pragmatik tabiatini aniq ifodalaydi. Olim diskursni matndan farqlaydi: matn – til tizimining yakuniy, statik mahsuli; diskurs – nutqning dinamik, jarayonli, kommunikativ vaziyatga bog'liq shakli. Bu farqlash diskursni o'rganishda ekstralingvistik omillarni – nutq ishtirokchilari, ularning niyati, ijtimoiy rollari, kommunikativ sharoitni hisobga olish zaruratini asoslaydi.

Arutyunova diskursni pragmatik kategoriyalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, diskursni ma'lum kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan; adresant va adresat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni

ifodalaydigan; nutqning kognitiv mazmunini, ya'ni bilim, tasavvur va baholashlarni aks ettiruvchi tushunchadir deb ta'kidlaydi. Shu sababli Arutyunova diskursni semantik-pragmatik birlik sifatida ko'radi. Arutyunova diskurs tushunchasini tilshunoslikda matndan tashqariga olib chiqib, uni real kommunikativ faoliyat, pragmatik vaziyat va ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qildi.

Mazkur g'oyalarning mantiqiy davomini V.I. Karasikning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. U diskursni ijtimoiy-madaniy va pragmatik hodisa sifatida talqin qilib, diskurs tushunchasiga oid ilmiy qarashlar lingvopragmatika va kommunikativ lingvistika doirasida shakllangan deb ta'kidlaydi. Muallif bu tushunchani ko'p qatlamli va murakkab fenomen sifatida talqin qiladi. Uning fikricha diskurs oddiy matndan farqli ravishda real nutq faoliyatining voqelanishi demakdir. Diskurs – bu nutqning kontekstda amalga oshgan shakli, u subyekt, adresat va vaziyat bilan bog'liq kommunikativ hodisadir. Unga ko'ra, matn – bu diskursning natijasi, diskurs esa jarayonning o'zi, ya'ni tilning harakatdagi holatidir (Карасик, 2006). Diskursda shaxs markaziy o'rinda turadi. Muallif diskursni shaxs bilan bog'liq hodisa deb biladi. Har bir nutq, uningcha, so'zlovchining ijtimoiy roli, dunyoqarashi, maqsadi va qadriyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun diskursni tahlil qilishda subyektivlik (ya'ni so'zlovchining nuqtayi nazari) muhim o'rin tutadi. Uning konsepsiyasi diskursni faqat matn yoki nutq ketma-ketligi sifatida emas, balki kommunikativ xulq-atvorning murakkab modeli sifatida o'rganishga asoslanadi. V.I. Karasik diskursni insonning kommunikativ faoliyati shakli deb hisoblaydi. Unga ko'ra, diskurs muayyan ijtimoiy vaziyatda yuzaga keladi; nutq ishtirokchilarining ijtimoiy rollari va maqomi bilan belgilanadi; kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bois diskursni o'rganmasdan turib, real kommunikativ jarayonni to'laqonli tahlil qilish imkonsizdir. Rasmiy, ya'ni institutsional diskurs ham shu jumladandir.

Mazkur maqolada institutsional diskurs borasidagi g'oyalar rivoji tahlilga tortiladi.

V.I. Karasik diskursni tahlil qilishda ko'p yo'nalishli yondashuvni qo'llab ularni 4 asosiy jihatdan tahlil qilgan: lingvopragmatik (maqsad, niyat, strategiyalar); sotsiolingvistik (ijtimoiy rollar, kontekst); kognitiv (dunyo manzarasi, bilim strukturasi); madaniyatshunoslik (milliy va madaniy qadriyatlar).

Tadqiqotchi tipologik jihatdan diskursning ikki asosiy turini ajratadi: *shaxsiy (personal) diskurs* – individning shaxsiy tajribasi va hissiyotlariga asoslangan muloqot; *institutsional diskurs* – jamiyat institutlari (davlat, ta'lim, sud, diplomatiya va boshqalar) doirasida amalga oshiriladigan rasmiy muloqot deb ta'kidlaydi (Karasik, 2000). Institutsional diskurs strukturasi shaxsiy diskursdan farqli ravishda ijtimoiy institut tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllanadi. Bu turdagi diskursda ishtirokchilar shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy rollar va maqomlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, ta'lim, diplomatiya, tibbiyot yoki davlat boshqaruvi diskursida kommunikatsiya qat'iy reglamentlangan bo'lib, nutqiy xatti-harakatlar institut talablari bilan chegaralanadi.

Diskurs masalasiga oid yuqoridagi farqli qarashlar aslida mohiyatan umumiy jihatga ega. Tadqiqotchilar turli ilmiy maktab va metodologik yondashuvlarga mansub bo'lishlariga qaramay, ularning barchasini yagona konseptual nuqta birlashtiradi. Bu nuqta diskursning mohiyatan kommunikativ tabiatga ega ekanligi, ya'ni dialog sifatida talqin qilinishidir. Quyida institutsional diskurs strukturasi xususida chuqurroq to'xtalamiz.

Bu masala V.I. Karasik tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan. Xususan, *intensionallik* (niyat), *interaktivlik* (muloqotdagi o'zaro ta'sir), *kontekstuallik* (kontekst bilan bog'liqlik), *personallik* (shaxsning ishtiroki), *modallik* (so'zlovchining munosabati), *zamon va makonga oidlilik* (vaqt-makon belgisi) tarkibiy qismlarga (kategoriya) ajratib ko'rsatadi. Bu kategoriyalar orqali diskurs struktur, semantik

va pragmatik jihatdan o'rganiladi deb taxmin qiladi (Karasik, 1992).

Olimning fikricha *intensionallik institutsional diskursning asosiy pragmatik yadrosi bo'lib, nutqiy faoliyatning qanday kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligini ifodalaydi*. Diskurs har doim ma'lum bir kommunikativ niyat asosida yuzaga keladi va bu niyat diskursning mazmuni, strukturasi hamda strategiyalarini belgilaydi. Institutsional diskursda intensionallik shaxsiy ehtiyojlardan ko'ra, institut tomonidan belgilangan funksional vazifalar (boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish, baholash, yo'naltirish) bilan aniqlanadi. Shu sababli intensionallik diskursni tasodifiy nutqiy hodisadan farqlab, uni ijtimoiy jihatdan maqsadli kommunikativ faoliyatga aylantiradi deb tushunishimiz mumkin.

Interaktivlik diskursning dialogik tabiatini ifodalashi ta'kidlanadi. Bunda diskurs har doim adresant va adresat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsulidir. Institutsional diskursda interaktivlik tenglikka asoslanmaydi, balki ijtimoiy rollar va maqomlar orqali tartibga solinadi. Nutqiy harakatlar ketma-ketligi, replikalar almashinuvi, savol-javob modellari va javobning kutilgan shakllari interaktivlikni tashkil etadi. Shu orqali diskurs kommunikativ jarayon sifatida shakllanib, ishtirokchilarning nutqiy xatti-harakatlari o'zaro bog'liq holda yuzaga keladi deb e'tirof etadi olim.

Shu bilan birga kontekstuallik kategoriyasi ham olim tomonidan ajratiladi. U diskursning vaziyatga bog'langanligi bilan asoslanadi. Unga ko'ra diskursni uning ijtimoiy, madaniy, institutsional va kommunikativ kontekstidan ajratib tahlil qilib bo'lmaydi. Institutsional diskursda kontekst huquqiy me'yorlar, tashkiliy qoidalar, kommunikativ protokollar va madaniy stereotiplar orqali belgilanadi. Aynan kontekst diskursning ma'nosini aniqlab, bir xil lingvistik birlikning turli vaziyatlarda turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi.

Personallik diskursda inson omilining mavjudligi demakdir. Institutsional diskursda shaxs butunlay yo'qolib ketmasligi, balki ijtimoiy rol doirasida namoyon bo'lishi

ta'kidlanadi. Nutq ishtirokchisi shaxs sifatida emas, balki mansab, maqom va funksiyaga mos ravishda gapiradi. Shu bilan birga, individual nutq uslubi, baholash, intonatsiya va strategik tanlovlar orqali shaxsiylik unsurlari diskursda saqlanib qoladi. Bu holat institutsional diskursning rasmiyligi bilan insoniy omil o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Modallik kategoriyasi V.I. Karasikning fikricha diskursda so'zlovchining axborotga, voqelikka va adresatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Modallik diskursning muhim semantik-pragmatik kategoriya sifatida ko'riladi. Institutsional diskursda modallik buyruq, tavsiya, majburiyat, ruxsat, baholash kabi ma'nolar orqali namoyon bo'ladi. Modallik vositalari orqali institutning hokimiyati, me'yoriy ustuvorligi va baholovchi pozitsiyasi ifodalanadi.

Zamon va makonga oidlilik diskursning konkret kommunikativ vaziyatga bog'langanligini ko'rsatadi deb olim e'tirof etadi. Bunda diskurs abstrakt hodisa emas, balki muayyan vaqt va makonda amalga oshadigan nutqiy faoliyat sifatida talqin qilinishini ta'kidlagan. Institutsional diskursda vaqt (rasmiy muddatlar, reglament, ish vaqti) va makon (sud zali, auditoriya, davlat idorasi) diskursning shakli va mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu kategoriya diskursning real voqelanishini va uning institutsional chegaralarini belgilaydi.

V.I. Karasikning institutsional diskurs masalasini o'rganilishidagi ikkinchi jihati uning strukturasi. Olim fikricha institutsional diskursning strukturasi, odatda, quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: institutsional subyektlar – ya'ni muloqot ishtirokchilari aniq ijtimoiy rollarda namoyon bo'ladi (sudya – tomonlar, o'qituvchi – talaba, mansabdor shaxs – fuqaro). Ushbu rollar diskursning mazmuni, uslubi va strategiyalarini belgilaydi; kommunikativ maqsad institutsional diskursning markaziy komponentidir. Bu maqsad shaxsiy niyat emas, balki institutning funksional vazifalaridan kelib chiqadi:

boshqarish, nazorat qilish, baholash, ko'rsatma berish, tartibga solish yoki rasmiy axborot yetkazish; normativlik va standartlashuv institutsional diskursning muhim strukturaviy belgisi hisoblanadi. Nutq shakllari, formulalar, klişelar va stereotip modellar oldindan belgilangan bo'lib, erkin nutq imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bu esa diskursning takrorlanuvchan va barqaror strukturasi yuzaga keltiradi; kontekst va vaziyat institutsional diskursda alohida ahamiyatga ega. Diskurs faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki huquqiy, tashkiliy, madaniy va ijtimoiy sharoit bilan birgalikda anglanadi. Bir xil nutqiy birlik turli institutlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin; verbal va noverbal vositalarning integratsiyasi institutsional diskurs strukturasi uchun xosdir. Rasmiy muloqotda intonatsiya, pauza, mimika, hujjat shakli, vizual belgilar (muhr, blank, forma) ham diskursning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi; diskursning bosqichma-bosqich tashkil topishi institutsional muloqotga xosdir. Bunday diskurslar odatda qat'iy ketma-ketlikka ega: ochilish (kontakt o'rnatish), asosiy axborot yoki harakat bosqichi va yakun (qaror, xulosa, buyruq) (Карасик, 2006).

Institutsional diskursda subyektlar ijtimoiy rollar asosida ishtirok etgani bois, nutqiy faoliyat individual ifoda shaklidan ko'ra institut manfaatlarini ifodalovchi vositaga aylanadi. Natijada kommunikativ maqsad shaxsiy niyatlar bilan emas, balki institut tomonidan belgilangan funksional vazifalar bilan belgilanadi va bu holat diskursning pragmatik yo'nalganligini kuchaytiradi.

Olimning ta'kidlashicha, mazkur butunlikning shakllanishida normativlik va standartlashuv muhim rol o'ynaydi. Oldindan belgilangan nutq modellarining mavjudligi diskursning takrorlanuvchanligini ta'minlab, kommunikativ harakatlarning barqarorligini yuzaga keltiradi. Shu orqali institutsional diskursda ma'no erkin talqin qilinadigan hodisa emas, balki kontekst, maqom va vaziyat bilan cheklangan holda amalga oshadigan pragmatik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

V.I. Karasik kommunikativ-pragmatik butunlik, shuningdek, diskursning kontekstual va vaziyatga bog'liqligi bilan mustahkamlanishini e'tirof etib, diskurs mazmuni faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki ijtimoiy-madaniy va tashkiliy sharoitlar orqali anglanadi. Bu holat diskursni kognitiv jihatdan ham murakkab hodisaga aylantiradi, chunki nutq ishtirokchilari institutga xos bilimlar, me'yorlar va stereotiplarga tayangan holda kommunikativ ma'noni dekodlaydi.

V.I.Karasikning institutsional diskurs tushunchasiga bergan ta'rifi ko'plab tilshunoslar tomonidan qo'llab-quvvatlangan va rivojlantirilgandir. Xususan bu fikrlar N.D. Arutyunovaning bu masaladagi qarashlarini yana bir marotaba tasdiqlaydi. N.D. Arutyunova diskursni "tilning amalda qo'llanishi", ya'ni ijtimoiy-madaniy faoliyat shakli sifatida talqin qiladi (Арутюнова, 1990). U diskursni muloqot sharoitidagi matn deb ko'radi va kommunikativ rollar (nutq subyekti, adresat, ijtimoiy holat) asosida turli diskurs turlarini ajratishni taklif etadi.

Diskurs lingvopragmatikaning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u nafaqat matnning mazmuniy-tarkibiy tuzilishini, balki muloqot jarayonini, undagi ishtirokchilar, kontekst va kommunikativ vaziyatni o'z ichiga oladi. N.D. Arutyunova ta'kidlaganidek, diskurs – bu "matn + ekstralingvistik omillar majmui", ya'ni til birliklari bilan bir qatorda ijtimoiy, psixologik, madaniy, vaziyatga doir omillarning o'zaro ta'sirida vujudga keladigan kommunikativ hodisadir.

V.I. Karasikning tadqiqotlarida aynan modellashtirish masalasi shaxsiy va institutsional diskurs doirasida o'z yechimini topgan. Institutsional diskurs modeli hususidagi fikrlarning rivoji va istiqbollarini ko'rib chiqish, bu qarashlar rivoji institutsional diskursning bevosita o'zi qanday ichki struktur hususiyatga ega ekanligini o'rganish sohaning tadqiq qilinishi lozim bo'lgan yana biri jihati deb tahmin qilish mumkin.

Tadqiqotlarimiz institutsional diskursning ichki struktur tashkiloti, ya'ni kommunikativ

rollar ierarxiyasi, diskursiv janrlar, nutq aktlari va baholovchi komponentlarni o'zaro uzviy bog'liq holda chuqur tahlilga tortish lozimligini ko'rsatmoqda. Bu holat institutsional diskursni mustaqil, ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan murakkab diskursiv tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu farqlarni tizimli tahlil qilish diskurs nazariyasining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Institutsional diskurs zamonaviy lingvistika doirasida faqat kommunikativ hodisa emas, balki ijtimoiy institutlar faoliyatini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida qaralishi diqqatimizni tortdi. Shu bois institutsional diskurs modellarini chuqur tahlil qilish, ularning zamonaviy kommunikativ jarayonlar bilan aloqadorligini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Shaxsiy va institutsional diskurs modellarini qiyosiy va tizimli o'rganish diskurs nazariyasining nazariy-metodologik bazasini kengaytirish, shuningdek, lingvistik modellashtirish masalasiga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Demak, zamonaviy tilshunoslikda insitutsional diskurs matn doirasidan chiqib, ijtimoiy, pragmatik va institutsional kontekstda shakllanuvchi murakkab, olimlar tomonidan kommunikativ hodisa sifatida talqin etilganligi ko'rinadi. Diskursni tadqiq etishga doir yondashuvlarning rivoji nutq mazmunining lingvistik birliklar bilangina emas, balki kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy omillar bilan belgilanayotganini tasdiqlanadi.

Kuzatishlarimiz institutsional diskursni mustaqil analitik kategoriya sifatida asoslash imkonini beradi. Institutsional diskurs jamiyat institutlari doirasida amalga oshiriladigan muloqot shakli bo'lib, unda nutq ishtirokchilarining maqomi va roli, kommunikativ maqsadlarning me'yorlanganligi hamda strategik va taktik nutqiy vositalarning tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday diskursda lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro uyg'unligi kommunikativ samaradorlikni ta'minlaydi.

Institutsional diskurs masalalari borasidagi tadqiqotlar tahlili rasmiy va professional muloqot turlarini kompleks o'rganish uchun mustahkam nazariy asos

yaratishi hamda kelgusida pragmatik va diskursiv tadqiqotlar olib borilishi uchun imkoniyatlar ochadi.

References:

1. Арутюнова, Н. Д. (1999). *Язык и мир человека*. Москва: Языки русской культуры.
2. Бенвенист, Э. (1974). *Общая лингвистика*. Москва: Прогресс.
3. *Большой энциклопедический словарь*. Языкознание / под ред. В. Н. Ярцевой. (1990). Москва: Советская энциклопедия. Статья «Дискурс». 136–137. Электронный ресурс: <http://tapemark.narod.ru/les/136g.html>
4. Карасик, В. И. (1992). *Язык социального статуса*. Москва: Институт языкознания РАН; Гнозис.
5. Карасик, В. И. (1994). Языковая личность и категории языка. В *Языковая личность: проблемы значения и смысла*. 14–24. Волгоград: [Издательство не указано].
6. Карасик, В. И. (2000). О типах дискурса. В *Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр.* 5–20. Волгоград: Перемена.
7. Карасик, В. И. (2006). О категориях дискурса. В *Языковая личность: институциональный и персональный дискурс*. 5–20. Волгоград: Перемена.
8. Harris, Z. S. (1952). Discourse analysis. *Language*, 28(1), 1–30. <https://doi.org/10.2307/410730>